

## INGLIZ TILIDAGI OG‘ZAKI NUTQ KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING XUSUSIYATLARI

**Nurullayeva Mahfiza Zokirovna**

[nurullayevamahfiza58@gmail.com.](mailto:nurullayevamahfiza58@gmail.com)

Samarqand Davlat Chet Tillar Instituti

### ANNOTATSIYA

Ushbu tesizda biz ingliz tilidagi og‘zaki nutq ko‘nikmalarini rivojlantirishning asosiy xususiyatlari to‘g‘risidagi qisqacha ma’lumotlar va tushunchalarni ko‘rib chiqamiz. Uning oliv va o‘rtta maxsus ta’limdagi ahamiyati hamda lingvopsixologik xususiyatlari haqida so‘z olib boriladi.

**Kalit so‘zlar:** lingvopsixologik xususiyatlar, ta’limda og‘zaki nutqdan foydalanish, og‘zaki nutq ko‘nikmasini rivojlantirish.

Nutq jarayonini o‘rganish hamda o‘rgatish ta’lim sohasida va boshqa sohalarda ham muhim ahamiyat kasb etadigan jabhalardan biri hisoblanadi. Xususan oliv ta’limda og‘zaki nutq ko‘nikmalarini rivojlantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Nofilologik yo‘nalishidagi talabalarining og‘zaki nutq ko‘nikmalarini rivojlantirish ta’limda o‘ziga xos xususiyatga egadir. Bu orqali talabalarning o‘z fikrlarini erkin ravishda bayon etishiga hamda so‘zlovchi bilan suhbatga kirishishda o‘zaro muloqot jarayonida bir-birini qiyinchiliklarsiz tushunishida, kommunikativ muhitni tashkil etishda, o‘z ixtisoslik sohasi doirasida muloqot olib borishga kirishishiga ko‘mak berish hisoblanadi. Yuqorida aytib o‘tilgan tushunchalarni amalga oshirishda esa nutq malakasini oshirish muhim hisoblanadi. Og‘zaki nutq ko‘nikmalarini rivojlantirishda esa ma’lum bir vazifalarga tayanish esa ta’limda asosiy rolni ijro etadi:

- Fikrni to‘g‘ri va aniq ifodalash, muqobil so‘zlarni ishlata olish;

- O‘rganilayotgan chet tili doirasida o‘zining ixtisosligiga tegishli bo‘lgan termin (atamalar) ni ishlata olish qobiliyati;

- Olib borilayotgan munozaralarda jarayonga o‘zining tegishli xulosasini keltirib o‘tish;

- So‘zlashuv jarayonidagi vaziyatga imkon qadar moslashish;

- Muloqot maqsadining aniqligini bila olish hamda uzviyligini tushuna olish.

Yuqorida keltirib o‘tgan fikrlarimiz umumlashmasi orqali, ta’limda og‘zaki nutq ko‘nikmalarini rivojlantirish, jarayoning lingvopsixologik xususiyatlarini ochib berishimiz mumkin.

Og‘zaki nutq ko‘nikmalari uchun muyyan bir shart-sharoitlar ta’lim jarayonining o‘zida progressiya jarayonida olib boriladi.

- Muoloqotga undovchi mavzuni taklif etish yoki uni jarayon orqali yuzaga keltirish;

- So‘zlovchining nima haqida fikr yuritayoganiga oid ko‘nikma va bilimlarni egallash;

- Fikrlash va idrok etishga oid nutq obyektiga so‘zlovchining munosabatini shakllantirish;

- Fikrni ifoda etishda ko‘zlanadigan maqsadni to‘g‘ri aniqlash;

- Fikr va his-tuyg‘ularni ifodalash vositasining shakllanganligini aniqlashtirishdir.

Og‘zaki nutq ko‘nikmalarining rivojlantirishda psixologiyaning o‘rni judayam muhim hisoblanadi. Og‘zaki nutqni rivojlantirishda psixologik jarayonlar, motivlar va situativlik jarayoni qaysidir ma’noda ko‘makchi vazifani bajaradi. Chet tilidagi og‘zaki nutq ko‘nikmalarini rivojlantirishning muhim psixologik omili ichki motivatsiyaning mavjudligi hisoblanadi. Har qanday so‘zlashuv jarayonida, muloqotda, ma’lum bir maqsadni ko‘zlagan holda motiv, ishonch va istak-xohishlarga e’tibor qaratiladi. A.A.Leontivning fikriga ko‘ra, motivatsiya bo‘lmasa hech qanday muloqot jarayoni vujudga kelmaydi. Har qanday muloqot jarayoni psixologik xususiyatlar bilan uzviy

bog'liq. Biz ifoda etadigan muloqot jarayoniga psixik jarayonlarining ta'sir doirasini kuchli hisoblanadi. Albatta bu aqliy faoliyat bilan bog'liqdir.

Xulosa qilib aytganda, og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirishda ta'limgagini barcha omillar nafaqat lingvopsixologik omillar balki, fiziologik, pedagogik omillar ham o'z ta'sir doirasiga ega hisoblanadi. Og'zaki nutq ko'nikmalarini ta'lim jarayonida rivojlantirish, uni keng miqyosda ta'lim jarayonida tatbiq etish, so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi muloqot birliklarini hamda maqsad va vazifalarini rivojlantirish ta'limning asosiy tamoyillaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy ta'lim jarayonida nutq ko'nikmalarini mukammal egallash, ularni ifodalashning ko'nikmalarini o'rganish, nutqning rivojlanishlanishining asoslari bo'lib xizmat qiladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)**

1. Jalolov.J.J. Chet til o'qitish metodikasi. Toshkent, 1996
2. Yoqubov I. "Ingliz tili o'qitish metodikasi", (o'quv qo'llanma). Toshkent. Sharq nashriyoti. 2003-yil.
3. Миролюбов А.А. Методика обучения иностранным языками: традиции и современность. – Обнингск: Титул, 2010.
4. Пассов Е.И. Основы коммуникативной методики обучения иноязычному говорению. – М.: Просвещение, 1989.